



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 20-may, seshanba,
59 (24.085)-son

O'zbek xalq
maqoli

Elda
bori -
senda bori

“SAMARQAND NONI – XALQ BRENDI”



Brend - biror bir kompaniya, mahsulot yoki xizmatning savdo belgisi. Ammo bugun mahsulotning o'zi, ya'ni Samarqand noni xalqimizning brendiga aylandi.

Ko'hna kentning Islom Karimov nomli ko'chasida “Samarqand noni - xalq brendi” nomli festival o'tkazildi. Festivalning ochilish marosimida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev hamda Adliya vaziri Akbar Toshqulov ishtirok etdi.

- Samarqand shirmoy noni bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi, - deydi Akbar Toshqulov. - Galaosiyo nonlari qadimdan xorijliklarning e'tiborini tortgan. Bugungi kunda uning dovrug'i yanada keng-roq yoyilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bir

necha asrlardan beri dunyo e'tiborini tortib kelayotgan Samarqand noni geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatga olingan.

Non festivalini mahalliy va xorijlik sayyohlar ham qiziqish bilan tomosha qildi.

- Turmush o'rtog'im va o'g'lim bilan Samarqandda mehmon bo'lib turibmiz, - deydi angliyalik Charlz Grame. - Bu shaharda judayam ajoyib festival o'tkazilayotganining guvohi bo'ldik. Nonlar ko'rgazmasini tomosha qildik, ularning tandirda yopilish jarayonlarini kuzatdik. Novvoylar bizga non berishdi. Samarqand - maftunkor shahar, non festivali - qiziqarli tadbir ekan.

Ikki kun davom etgan saylda viloyatimizning barcha shahar va tumanlaridan, shuningdek, respublika-mizning turli hududlaridan kelgan novvoylar ishtirok etdi. Hududda ular tomonidan 22 ta tandir o'rnatildi va nonlar yopildi.



Har bir hududdan kelgan ishtirokchi o'ziga xos nonlar tayyorlagan. Festivalda eng katta non 10 kilogramm undan tayyorlangan Galaosiyo noni bo'lsa, eng yirik patir Bulung'ur qozon patiri bo'ldi.

- Tadbirda 30 turdan ziyod non va patirlarimiz bilan ishtirok etaypmiz, - deydi bulung'urlik Nodira Ma'mirova. - Bu yerda qozon patirlarimiz, ayniqsa, 100 litrlik qozonda 7 kilogram undan tayyorlangan patirimiz ko'pchilikning e'tiborini tortyapti.

Festivalda ishtirok etgan Toshkent, Surxondaryo, Xorazm va boshqa viloyatlardan kelgan novvoylar tomonidan tayyorlangan non va non mahsulotlari o'ziga xosligi bilan ajralib turdi.

- Xorazmning Urganch shahridan ataylab shu non saytida ishtirok etish uchun keldik, - deydi Charos Omonova. - Viloyatimizning o'ziga xos non va patirlarini tayyorlab kelganmiz. Ular orasida boshqa hududlarda tayyorlanmaydigan “Shivit non”imiz bor. Bu un, sutga asosan, shivit va boshqa ko'katlar aralashtirilib tayyorlanadi. Bu yupqa, ko'rinishidan juda nozik, ammo sinib ketmaydi va vitaminlarga boy mahsulot.

Festival doirasida novvoylar o'rtaida tanlov ham o'tkazildi. Yakunga ko'ra, samarqandlik Ramiz Tohirov eng yosh hamda surxondaryolik 80 yoshli Rahmat bobo Zokirov eng yoshi ulug' novvoy sifatida taqdirlandi.

Tanlovda uchinchi o'rinni “Avesto” oilaviy korxonasi rahbari Bahodir Odilov qo'lga kiritdi. Alisher Mustafuqulov hamda Murod Pardayevlar ikkinchi o'ringa loyiq, deb topildi.

Birinchi o'rinni esa paxtachilik va pastdarg'omlik novvoylar egalladi. Oliy o'rin samarqandlik novvoylar Orziqul Zohidov va Hamza Haydarovlarga nasib etdi.

Dilnoza AHMADOVA, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Qo'shrabot tumani Mayintepa mahallasida Adliya vazirligi ko'magida “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi asosida mahalla markazi binosi, oilaviy poliklinika filiali, suv inshooti foydalanishga topshirildi.

“Kambag'allikdan farovonlik sari”: Mayintepada o'zgarishlar bor



Dastur ijrosi bo'yicha adliya vazirligi Qo'shrabot tumanidagi Xonnazar, Mayintepa, Navkat, Do'stlik va Qiy-qim mahallalariga birkirilgan. Shu yilning fevral oyida vazir Akbar Toshqulov aholi bilan uchrashib, ularning muammolari, takliylarini eshitgan edi. Aholi murojaatlari asosida hududda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilangan edi.

O'tgan davr mobaynida ushbu vazifalar ijrosi ta'minlanib, aholini kambag'allikdan chiqarish, hududda qulay turmush sharoiti yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, tumanning 3400 nafardan ortiq aholi yashaydigan chekka hududlaridan biri Mayintepa mahallada yangi mahalla markazi qurildi. 1 milliard so'mdan ortiq homiylik yordami asosida qurilgan binoda mahalla yettiligi uchun qulay sharoit yaratildi.

Shuningdek, mahalla markazi yonidagi qishloq vrachlik punktining eski, foydalanilmayotgan binosi qayta rekonstruksiya qilinib, tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 43-oilaviy poliklinikaning Mayintepa filiali tashkil etildi.

Filial 50 qatnovga mo'ljallangan bo'lib, zarur tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlangan. Endilikda bu yerda aholiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Mahallada yangi artezian suv qudug'i ishga tushirilishi bilan 27 oilaning suv ta'minoti yaxshilandi va bu oilalar endi dehqonchilik bilan shug'ullanib, daromad qilishi mumkin. Kuniga 156 m³ suv chiqarish imkoniyatiga ega inshoot yordamida 18 gektar yer sug'oriladi.

Yangi inshootlarning foydalanishga topshirilishida Adliya vaziri A.Toshqulov ishtirok etdi va aholi bilan uchrashib, ularni o'ylantirayotgan boshqa muammolarni eshitdi. Hududda “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi asosida navbatdagi yumushlar belgilab olindi.



Ma'naviyat va insonparvarlik maskaniga nazar

Kattaqo'rg'on shahrida “Oila – ma'naviyat va insonparvarlik maskani” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

“Farovon oila sari” oyligi doirasida O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Kattaqo'rg'on shahar hokimligi hamkorligida tashkil etilgan anjumanda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi mas'ullari, Oliy Majlis Senati a'zolari, oila masalalari bo'yicha yetakchi pedagog, psixolog olimlar, viloyat, shahar Kengashlari deputatlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Viloyat hokimi fermerlar bilan uchrashdi

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev Past Darg'om tumanida 2025-yil hosili uchun ekilgan paxta maydonlarida agrotexnik tadbirlarining o'tkazilishi, paxtakorlarni qiynayotgan muammolar yuzasidan fermerlar bilan uchrashdi.

- Yer xalqimizning umummilliy boyligi agar kimda-kim yerdan samarali foydalanmasa, zamonaviy intensiv texnologiyalarni joriy qilmasa, qanday qilib yuqori hosildorlikka erishish mumkin, - dedi A.Boboyev. - Yerga bo'lgan munosabatni o'zgartirib, g'alladan gektariga 100 sentner, paxtadan 50 sentner hosildorlikka erishish uchun barcha zarur choralarini ko'rishimiz shart. Lekin ming afsuski, tumandagi fermer xo'jaliklarining g'o'za maydonlarida olib borilayotgan agrotexnik tadbirlar qoniqarli emas.

Ma'lumot uchun, tumanda 2025-yil hosili uchun 1095 gektar maydonga chigit ekish belgilangan. Chigit ekilgan maydonlarda g'o'zaning unib chiqishi hamda qator orasiga birinchi ishlov berish ishlari to'g'ri tashkil etilmagan. Shu sababli tumanda g'o'za parvarishida “Favqulodda zarbdor 15 kunlik” belgilandi.

Shuningdek, don qabul shoxobchalaridagi yopiq va ochiq sig'implarni, laboratoriya va tarozilarni, boshqa texnika va jihozlarni mavsumga to'liq tayyorlash, g'alla o'rim- yig'imini uyushqoqlik bilan o'tkazish

bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Tijorat banklari rahbarlari va tovar xomashyo birjasi bilan birgalikda o'zlashtirilmasdan turgan 7,7 milliard so'm imtiyozli kredit mablag'larini zudlik bilan o'zlashtirilishini ta'minlash kerakligi qayd etildi.

Ajratilayotgan mablag'larni yoqilg'i-moylash materiallari va mineral o'g'itga hamda ishchilarga ish haqi sifatida to'lab berish topshirildi.

- Tumanimizdagi 692 ta fermer xo'jaligining 300 ga yaqini paxta-g'allachilik yo'nali-shida faoliyat yuritadi, - deydi tuman hokimligi bosh mutaxassisi Rustam Eshqobilov. - Uchrashuvda fermer xo'jaliklari bilan birga tuman, viloyat tashkilotlari rahbarlari ham ishtirok etdi. Fermerlar tomonidan dalalarni sug'orishdagi qiyinchiliklar, elektr energiyasidagi uzilish va narx malalari, klaster korxonalarining qarzdorligi kabi o'nga yaqin muammo bildirildi. Viloyat hokimi barcha taklif va muammolar yechimi bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi.

O'XUDYOBERDIYEV.

Abu Dabi taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida Samarqand shahrida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish loyihasi doirasida shaharning Gagarin va Rudakiy ko'chalari kesishmasida tunnel qurilishi hamda mavjud kommunikatsiya tarmoqlarini ko'chirish ishlari olib borilmoqda.

Qurilish-ta'mirlash ishlarini “Me'mor O'tkir Chovka” MChJ bunyodkorlari olib borishmoqda. Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasidagi tunnelni ham mazkur qurilish korxonasi bunyod etgan.

- Yangi qurilayotgan yo'l o'tkazgich tunnelning loyiha qiymati 18 million AQSh dollarini tashkil etadi, - deydi “Me'mor O'tkir Chovka” MChJ boshlig'i Umid Ro'zmetov. - Hozirgacha obyektimizda jami 5200 metr uzunlikdagi beton ustunlar o'rnatildi. Chor-rahaniy ikki tomonida 800 metr uzunlikdagi elektr energiyasi, 1200 metr tabiiy gaz hamda ichimlik suvi tarmoqlari ko'chirildi. Shuningdek, yer osti tunneli hududidan o'tgan va unga tutash hududlardan 2300 metr uzunlikdagi turli hajmdagi kanalizatsiya hamda internet aloqa tarmoqlarining

Yirik tunnel yil oxirigacha ishga tushadi



ham joylari o'zgartirildi.

Mazkur qurilish obyektida 12 ta maxsus va yuk mashinasi, 80 nafardan ziyod quruvchi mehnat qilishmoqda. Ular tomonidan kuniga 100 metrdan ziyod hudud betonlashtirilib, 150 metr kanalizatsiya tarmoqlari yotqizilmoqda.

Hozirda qurilish korxonasi quruvchilari Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari chor-rahadagi tonnelda ham so'nggi texnik va pardoqlash ishlarini yakunlashmoqda.

Shuningdek, quruvchilar Gagarin ko'chasidagi ishlarini davom ettirib, Qorasuv massivi yo'nalishidagi temiryo'l ko'prigini kengaytirib, Siyob kanali ustidan yangi avtomobil yo'li o'tkazish osma ko'prigini ham bunyod etishadi.

O'tgan yili noyabr oyida qurilishi boshlangan mazkur tunnel joriy yil yakunigacha foydalanishga topshiriladi.

Dilmurod TO'XTAYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Ma'naviyat va insonparvarlik maskaniga nazar



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar asosida yaratilgan va muntazam takomillashib borayotgan tizim oilalarni samarali mexanizmlar asosida har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mustahkam oilalarni bunyod qilishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.



– Konstitutsiyamizga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda u davlat va jamiyat muhofazasida. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi, – dedi Z.Mahkamova. – O'zbekiston-2030" strategiyasida oilaviy, milliy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha konseptual vazifalar qo'yilgan. Xususan, oilaga "insonsonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab" deya ijtimoiy maqom berildi. Bugun mamlakatimizda 10 million 300 mingdan ortiq oila mavjud bo'lib, 3 milliondan ko'prog'i yosh oilalardir. Har bir oilaga davlat e'tiborida ekanini his ettirish, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, hech bir ayolni o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirmaslik, kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarga alohida mehr va e'tibor ko'rsatish, avvalo, davlat, shuningdek, nodavlat tashkilo-

tlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ustuvor vazifasiga aylandi. Bugun zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilada sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda, oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda. Shu kabi sa'y-harakatlar natijasida mamlakatimizda bugungi global-lashuv jarayonlarining har qanday ko'rinishlariga, salbiy tahdidlariga bardosh bera oladigan zamonaviy oilaning mustahkam tizimi yaratildi.

Kattaqo'rg'on shahar hokimi Gavhar Alimova shaharda oilalar bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar va istiqbol vazifalar haqida so'z yuritdi. Kattaqo'rg'on tajribasi sifatida yaratilgan "Oila-niing namunaviy nizomi" loyihasi bo'yicha taqdimot qildi.

Konferensiyada Oliy Majlis

Senati a'zosi Gulnora Ma'rufova, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti direktori Nodira Egamberdiyeva, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va psixologlarining oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni asrash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalaridagi ma'ruzalari tinglandi.

Ma'ruzalarda oila, uning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni, oilaga daxldor muammolar, mas'ul tashkilotlar, keng jamoatchilik oldidagi ustuvor vazifalar atroflicha muhokama qilindi. Fikr-mulohazalar almashildi, tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu asosida ilmiy-amaliy konferensiya rezolyut-siyasi qabul qilindi.

Konferensiyaning ikkinchi qismida "Farovon oila sari" oyligi doirasida "Ibratli oila" ko'krak nishoni sohibalari, ahlil oilalar, yosh kelin-kuyovlar ishtirokida "Oilalar sayli" (Oilafest), "Oila – bolalar nigohida" rasmlar ko'rgazmasi o'tkazildi.

– Yaqingacha mahallada xarajatli ish chiqsa, homiy izlab ovora bo'lardik, – deydi Kattaqo'rg'on shahridagi Chinobod mahallasi raisi Salim Tursunov. – Yechimi mablag' talab qiladigan muammolar kam deysizmi. Kimgadir moddiy yordam berish kerak, ko'cha, ariqlar ta'miri, ko'chat sotib olish uchun ham pul zarur. Mahallaning o'z budjeti yo'qligi bois "qo'limiz kalta" edi. Yangi tizim joriy qilinishi bilan ishimiz ancha yengillashdi.

Chinobod katta mahalla emas, 764 xonadon-da 2952 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahalla budjetiga tushadigan mablag' ham shunga yarasha – 2024-yilda 25 million so'mni tashkil qilgan. Biroq shu mablag' bilan ham hududdagi aksar muammolar yechilayotgan ekan.

– Nafaqadaman, 2017-yilda uyim yongan edi, – deydi Ma'ruf Ro'ziyev, – Qaramog'imda xotinim va qizlarim bor. Uyimni ta'mirlatishga imkonim yo'q. Shu yillar ichida ko'p joyga yordam so'rab murojaat qildim, foydasi bo'lmadi. Mana, mahalla yordam berishni boshladi. Shiferlar keldi, endi yog'och ham olib berisharkan.

Ma'lumotga ko'ra, mahalla budjeti hisobidan hududdagi eski suv inshooti ta'mirlanib, yaroqsiz suv quvurlari yangisiga almashtirilgan. Rais bu yilgi mablag'dan ko'chalarni yoritish va piyodalar yo'laklarini qurishni rejalashtirgan.

Yaqingacha mahallalarda moliyaviy va ma'muriy resurs mavjud emasligi yuqoridagi kabi yechimi oddiy muammolarning ham yillar davomida e'tiborsiz qoldirilishiga olib keldi. Bu davrda ish ko'rsatishi kerak bo'lgan raislar homiylikka murojaat qilishga majbur bo'ldi. Albatta, homiylar har doim ham beminnat yordam ko'rsatmaydi. Bir muammoni hal qilish uchun ikkinchisini keltirib chiqarish kimga yoqadi?!

2022-yilda eksperiment tariqasida yo'lga qo'yilgan "Mahalla budjeti" loyihasi Prezidentning tegishli qarori bilan yanada takomillashtirildi. Hujjatda jamg'arma mablag'larini shakllantirish va qaysi yo'nalishlarga sarflash tartibi aniq belgildi. Xo'sh, undan kim va nima maqsadda foydalanyapti? Jarayonda qanday muammolar bor? Anglaganingizdek, holatni Kattaqo'rg'on shahri misolida o'rganishga qaror qildik.

Ma'lumotga ko'ra, shaharda 36 ta mahalla bo'lib, 2024-yilda "Mahalla budjeti"ga 656 million 523 ming so'm tushum bo'lgan. O'tgan vaqtda shundan 412 million so'mi sarflangan. Xarajatlar ro'yxatida asosiy mablag' yo'llarni ta'mirlash, piyodalar yo'lakchalarini qurish, mahalla faollari uchun zarur mehnat sharoitini yaratish uchun yo'naltirilganligini ko'rish mumkin.

– Yashirib nima qilamiz, hali ham aksariyat mahallalarda faollar uchun sharoit yetarli emas, – deydi mahallalar uyushmasi shahar bo'limi bosh

“Mahalla budjeti”: qulayliklar ko'p, muammolar ham



hisobchisi Shuhrat Xayrullayev. – Qaysidadir bino eski, boshqasida kompyuter jamlanmalari yo'q. Shu bois mablag'ning ma'lum qismi shu maqsadlarda ishlatilmoqda. Albatta, jarayon nazoratsiz emas. Har bir xarid elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Biroq bunda ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. Aytaylik, mahallaga bir nochor oilaning uyini ta'mirlash yoki shuning xarajatini qoplash uchun 2 million so'm mablag' kerak. Bunday talabnomani platformaga qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli mahallalarga 2 million so'mgacha bo'lgan mablag'ni ta'minotchi bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma qilish orqali sarflash imkoniyatini berish kerak deb o'ylayman.

Shahar markazidagi G'arb Machit mahallasi-da 13 ta ko'p qavatli uy hamda 20 ta umumiy hovili xonadonlar bor. Mahalla budjetiga tushum ham shunga yarasha. Aslida bunday mahallalarda katta xarajat talab qilinmaydi. Kam ta'minlangan oila xonadonini ta'mirlash uchun kimgadir 15-20 ta shifer, boshqasiga bir nechta quti bo'yoq bilan 100 kilogramcha sement olib berish kifoya. Qolgan hashar bilan bitadi. Lekin ayni kichik xarajatlarni alohida talabnoma qilib, byudjetdan olish qiyin ekan.

– Ilgari shu pul ham yo'q edi, – deydi mahalla raisi Erkin To'ychiyev. – Imkoniyatimiz darajasida aholiga ko'mak berib kelyapmiz. Misol uchun oxirgi mablag'ga 3 ta kam ta'minlangan oila xonadoni uchun 20 tadan shifer berdik. Bizga asosan yashash sharoitini yaxshilash masalasida murojaatlar bo'ladi. Agar shu kabi xarajatlarni qulaylik yaratilganda, ishimiz ancha oson bitardi.

Mahalla raislari bilan suhbat chog'ida shu

narsa aniq bo'ldiki, elektron platforma orqali mahalla buyurtmasini yutib olgan ta'minotchilar har doim ham va'dasi ustidan chiqmayapti. Qaysidiri rais bilan "kelishish"ga harakat qil-sa, boshqa holatda yetkazilayotgan mahsulot sifati talab darajasida emas. Agar bunga imkon bo'lsa, tizimda muammo bor. Qoidani chetlab o'tish uchun sharoit bor joyda u buzilishi aniq. "Hojatbaror" ta'minotchining taklifini barcha raislar rad etishiga kim kafolat beradi?

Mavzu yuzasidan o'rganish olib borayotganimizda ba'zi raqamlar ham e'tiborimizni tortdi. Misol uchun shahardagi Yakkabog' mahallasi budjetiga 2024-yilda 51 million so'm tushim bo'lgani holda, Oq Oltin mahallasida bu 1 million 200 ming so'mni tashkil etadi. Bu Oq Oltin mahallasida hovli-joylar kamligi, bori ham kichikligi, munosib ravishda ulardagi soliq tushumi ozligi bilan izohlandi. Mayli, shunday hamdir, lekin 1 million 200 ming so'm bilan nima qilib bo'ladi? Soliq tushumi kam mahallalar o'zgarish qilmaydimi?

Kattaqo'rg'on shahrida ayni muammo kichik mahallalarni o'zaro birlashtirish yo'li bilan yechilmoqda. Shuhrat Xayrullayevning aytishicha, 9 ta mahallani birlashtirish bo'yicha hujjatlar tayyorlanayotgan ekan. Lekin viloyatimizning boshqa hududlarida maydoni keng, hududida fermer va fermalar ko'p, og'ir sharoitli joylardagi mahallalar ham bor. Ularda mahalla budjetiga o'tadigan soliq tushum kam. Bu holatda mahallani qisqartirish bilan ish bitmasligi aniq. Masalaning bu jihatlari ham ko'rib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asqar BAROTOV.

Sportga mas'ullar tayinlandi

Samarqandda sport turlarini rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini om-malashtirish va iqtidorli sportchilarni terma jamoalarga yetkazib berishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Sport vaziri Adham Ikramov hamda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirok etgan majlisda viloyatda tashkil etilishi rejalashtirilgan mahalliy va xalqaro sport tadbirlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, omma-viy sportni yangi bosqichga olib



chiqish, aholining jismoniy faolligini oshirish, viloyatda «Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari» sport musobaqalarini o'tkazish, 2028-yil-



da Los-Anjelesda bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga iqtidorli sportchilarni saralash, sport federatsiyalari faoli-

yatini takomillashtirish masalalari muhokama qilinib, mas'ullarga aniq topshiriqlar berildi.

Shuningdek, yig'ilishda tashkiliy masalalar ko'rilib, **Nurmanov Jasur Ne'matovich** viloyat sport boshqarmasi boshlig'i lavozimiga hamda **Sobirov Qayum Hamrayevich** Milliy Olimpiya qo'mitasi-ning viloyat bo'linmasi ijrochi direktori lavozimiga tayinlandi.

Yig'ilishda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini om-malashtirishda fidoyilik ko'rsatib kelayotgan maktabgacha va maktab ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan faol xodimlar «Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi» ko'krak nishoni va tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

Yoz, bolajonlar uchun ta'til yaqinlashmoqda. Bugungi kunda viloyatimizda 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 603 ming nafarga yaqin. Bolajonlarni dam oldirish maqsadida mavsumga tayyorgarlik boshlandi. Bu yil viloyatdagi 12 ta oromgohta 7620 nafar bolajonlarning 5 davrada dam olishi rejalashtirilgan. Oromgohtar bolajonlarni 10-iyundan boshlab qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqaamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqaamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari yo'llanmalarini shaffof va qulay tarzda onlayn sotish hamda bu jarayonda korruptsiya omillarini bartaraf etish yo'lga qo'yildi. Ya'ni, "Oromgohlar.uz" elektron platformasi ishlab chiqilib, 2024-yilda sinov tariqasida ishga tushirildi va o'ttirilgan tajriba asosida yana-

Yo'llanmalarni “Oromgohlar.uz” orqali olishingiz mumkin

da takomillashtirildi. Joriy yilda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi barcha bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari yo'llanmalari mazkur platforma orqali sotilishi belgilangan.

Yozgi oromgohlardagi tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-sport tadbirlari 12 kunlik namunaviy dastur asosida o'tkaziladi. Ushbu dasturga kiritilgan tadbirlar bolajonlarni har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat, ma'naviy jihatdan boy, milliy g'urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Joriy yilning may oyida oromgohlarda faoliyat yuritadigan pedagog-xodimlarga 12 kunlik dastur asosida seminar-treninglar, o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Dasturning samarali yo'lga qo'yilishida maktab va maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar, yoshlar ishlari agentligi, sanitariya-epide-miologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari bilan hamkorlik o'rnatilgan.

Bolalarning dam olishini va sog'lom-



lashtirilishini tashkil etish departamenti tasarrufidagi oromgohlar yo'llanmalarining narxi "Chorchinor" oromgohi uchun 2 million 200 ming so'm, "Ilm ziyosi", "Bahora" va "Alpomish" larga 2 million so'm va "Quvnoq", "Shabnam", "Qo'shchinor", "Kamalak jilosi", "Yosh astronom"

va "Samarqand" bolalar oromgohlari uchun 1 million 900 ming so'm etib belgilangan. Yo'llanmalar kasaba uyushma tarmoqlariga oromgohlar tomonidan sotilayotganda, yo'llanma narxidan har bir yo'llanma narxining 50 foizidan oshmagan miqdorda oromgohlarga Bolalarni sog'lomlashtirish va

aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi tomonidan kompensatsiya to'lash belgilangan. Shundan kelib chiqib, "Chorchinor" oromgohi uchun ota-onalar tomonidan to'lanadigan mablag' 537500 so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ijroiya qo'mitasining tegishli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirishni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tayyorgarlik ishlari, mavsum jarayonining borishi bo'yicha tezkor va muntazam monitoring olib borish hamda umumlashtirilgan ma'lumotlarni zaruriy choralar ko'rish uchun tegishli boshqarma va idoralarga taqdim etib borish, oromgohlarni mavsumga sifati tayyorlash maqsadida viloyat shtabi tashkil etildi.

Mavsumda bolajonlarimizni maroqli va sifatli dam oldirish maqsadida barcha oromgohlarda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari davom etmoqda.

Feruza QILICHOVA,
Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti viloyat boshqarmasi boshlig'i.

Yoz yaqin





Ko'p madaniyatli ta'lim va global pedagogika

Joriy yil 3-5-iyun kunlari Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilgan "IFTE – 2025: UZBEKISTAN" xalqaro pedagogik ta'lim forumi O'zbekistonning jahon miqosidagi ta'lim va pedagogik salohiyatini namoyon etishda muhim bosqich bo'ladi.

Forum ko'p madaniyatli muloqotni kengaytirish, ilmiy-ta'limiy hamjamiyatlarni integratsiya qilish hamda ko'p madaniyatli ta'lim sharoitida psixologik-pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadbir doirasida ayniqsa zamonaviy global o'zgarishlar sharoitida samarali ishlay oladigan, kasbiy moslashuvchanlikka ega bo'lgan, raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Forumda O'zbekiston va Rossiyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Qozon federal universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti vakillari ishtirok etadi. Forum doirasida ta'lim tizimlarini integratsiyalash, ilg'or tajribalarni almashish hamda globallashuv sharoitida samarali yechimlar izlanadi.

Samarqand davlat chet tillar institutida tashkil etiladigan "Ko'p madaniyatli dunyoda pedagogik ta'lim: tarix va hozirgi zamon"

mavzusidagi konferensiyada Rossiya, Gretsiya, Xitoy, Sloveniya, Ispaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa davlatlardan 80 dan ortiq mutaxassislar, O'zbekistondagi universitetlar va ilmiy markazlardan 50 ga yaqin vakillar ishtirok etadi.

Anjumanda globalizatsiya, madaniy xilma-xillik va pedagogik amaliyotdagi o'zgarishlar sharoitida zamonaviy ta'lim tizimlari oldida turgan dolzarb muammolar va vazifalar muhokama qilinadi. Yakunda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangi hamkorlik loyihalari va o'quv dasturlarini tayyorlash bo'yicha kelishuvlar imzolaniishi kutilmoqda.

Dilnoza BEGMATOVA,
SamDCHTI pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri.



Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan nodavlat notijorat tashkiloti vakillari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Unda davlatimiz rahbarining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun yaratilgan imtiyozlar, joriy yil rejalashtirilayotgan davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar xususida so'z bordi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan ajratilayotgan grantlarni tizimlashtirish, samaradorligini oshirish davlatimiz e'tiboridagi masalalardan bo'lib kelmogda, - deydi Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi rahbari Otabek Husanov. - Xususan, 2017-yildan 2025-yilga qadar mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun 60 dan ortiq qonun va qonunosti hujjat qabul qilingan. 2008-yildan 2024-yilga qadar fond tomonidan

Grantlar manzilli bo'ladi



NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga 2 trillion so'mdan ortiq grant mablag'lari ajratildi. Ushbu mablag'larning 50 foizi nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun sarflangan.

Endilikda grantlar yangicha tartibda ajratiladi. Ya'ni, ilgari u yoki bu viloyatdagi faol NNTlar takror-takror grant mablag'lari yutib olar, boshqa hududagi NNTlar o'z faoliyatini yetarlicha olib bormayotgan edi.

Grant tanlovlari har bir hududning muammolari o'rganilgan holda o'tkaziladi. Buning uchun yaqindagi Samarqandda ham xalq deputatlari viloyat, tuman Kengashlari deputatlari va

Kengash kotibiyati, Jamoat fondi va uning hududiy bo'linmalari, O'zNNT-MA, "Yuksalish" harakatining hududiy bo'linmalari vakillaridan iborat ishchi guruh tashkil etilib, shahar va tumanlardagi ijtimoiy muammolar o'rganildi. Ushbu muammolar yechimi tahlil etilib, shunga ko'ra grant tanlovlar aniq mavzuli tarzda e'lon qilindi.

Yig'ilishda viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Shuhrat Abdulhalimov sohadagi yangiliklarning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratdi.

Uchrashuv davomida nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari mutasaddirlarga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat etishdi.

Моҳир раҳбар, салоҳиятли тиббиёт ходими

Самарқанд тиббиётининг тараққиёти ва халқ саломатлиги йўлида ўз умрини фидо қилган, юсак маънавият, илм ва касбга садоқат тимсоли бўлган инсонлар орамизда кам учрайди. Шундай ноёб шахслардан бири Неъмат Исомович Хўжаев эди.



У кишининг пок инсонлиги, илмга садоқати, шогирдларга ва Ватанга бўлган меҳр-муҳаббати бугун ҳам юракларимизда сўнмас илҳом ва ибрат манбаи бўлиб турибди. Одамлар қалбидан жой олиб, юртимиз тиббиётида ўз ўрнига эга бўлган бу инсон ҳаёт бўлганда бугун 75 ёшга тўлган бўларди.

Неъмат Исомович Самарқанд шаҳрида туғилиб ўсган. 1967 йилда шаҳардаги 21-ўрта мактабни олтин медал билан тугатиб, Самарқанд давлат тиббиёт институти (ҳозирги Самарқанд давлат тиббиёт университети)нинг даволаш факультетига ўқишга кирди. 1973 йилда мазкур даргоҳни аъло баҳолар билан битириб, даволловчи врач ихтисосини олди. Сўнгра интернатурада тахсилни давом эттирди ва врач-терапевт мутахассислигига эга бўлди.

Неъмат Хўжаев меҳнат фаолиятини ҳали талабалик даврида, 1970 йилда бошлаб, меҳнати, интилиши ва ташаббускорлиги билан раҳбарлик вазифаларида самарали ишлади. Дастлаб вилоят руҳий касалликлар шифохонасида ўрта тиббиёт ходими, сўнгра Самарқанд тумани марказий шифохонаси терапия бўлими врач-терапевти, шу тумандаги Захлик ва Охунбобоев кишлоқ участка касалхонаси врач, бош врач бўлиб ишлади. 1977 йилдан бошлаб икки йил Самарқанд туманидаги Оҳалик санаториясига раҳбарлик қилди.

1979 йилдан Неъмат Исомович санитария-эпидемиология соҳасида фаолиятини давом эттириб, 14 йил Самарқанд туманида шу тизимга бош бўлди. Кейин эса Самарқанд тумани ҳокимининг ижтимоий масалалар бўйича ўринбосари, туман марказий

шифохонаси бош врач вазифаларида самарали фаолият кўрсатди.

Неъмат ака бу даврда ташаббускор раҳбар, соҳа фидойиси сифатида эътибор қозонди, назарга тушди. Шу боис 1998 йилда уни вилоят бош давлат санитария врач, давлат санитария-эпидемиология назорати маркази бош врач, лавозимига тайинлашди. 2006 йилдан 2009 йилгача эса вилоят соғлиқни сақлаш бошқармасига бошлиқ бўлди.

Устоз шифокор кўп йиллар вилоят врачлар ассоциацияси раиси, Самарқанд давлат тиббиёт институти ижтимоий саломатлик ва соғлиқни сақлашни ташкиллаштириш курси мудири вазифаларини ҳам бажарди. У киши қаерда, қайси лавозимда ишлагани, зиммасидаги бурчини ҳис қилган ҳолда, аввало аҳоли саломатлиги учун

шижоат кўрсатиб меҳнат қилди.

Тиббиёт фанлари номзоди Н.Хўжаевнинг хизматлари эътироф этилиб, давлатимиз ва соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан турли орден ва медаллар, faxрий ёрликлар билан тақдирланганди. Турон фанлар академияси томонидан академик илмий унвони ва кўкрак нишони берилганди.

Неъмат Исомович ташаббуси билан "Самарқанд вилоят давлат санитария-эпидемиология назорати тарихи", икки томлик "Самарқанд тиббиёти тарихи", "Самарқанд табобати тарихий босқичлари", "Самарқанд тиббиёти равнақи", "Самарқандлик ҳақимлар", "Вилоят врачлар ассоциациясининг қисқача тарихи", "Развитие здравоохранения Самарканда в годы независимости" сингари ўндан ортиқ китоблар нашр этилди.

Устоз соҳага янгича фикр ва ташаббуслар олиб кирган, юртимиз тиббиёти ривож йўлида мунтазам изланишда бўлган ва бу ишга салмоқли ҳисса қўшган мақсадли шахс эди. У факатгина раҳбар эмас, кучли шахсий намуна кўрсатган, шогирдларини ватанпарвар, ҳалол ва касбига садоқатли тиббиёт ходими этиб тарбиялаган устоз сифатида ҳам доимо эзгу хотиралар билан тилга олинади.

Сухроб ЗАЙНИЕВ,
вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси бошлиғи.

РЕКЛАМА, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

**Samarqand shahridagi
"SAMARQAND IPAK YO'LI" MCHJ
ta'sischilarining 2024-yil yakunlari bo'yicha
navbatdagi umumiy yig'ilishi
2025-yil 18-iyun kuni jamiyat ma'muriy
binosida soat 10:00 da o'tkaziladi.**

KUN TARTIBIDA:

- jamiyat direktorining jamiyatning 2024-yilgi moliyaviy xo'jalik faoliyati yakuni va 2025-yil rejaları bo'yicha hisoboti;
- jamiyatning 2024-yilgi moliyaviy xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha auditorlik tekshiruvi natijasi va uning xulosasini tasdiqlash;
- jamiyatning 2024-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasini ta'sischilar o'rtasida taqsimlash;
- jamiyat direktori bilan mehnat shartnomasini tuzish;
- boshqa masalalar.

**Manzil: Samarqand shahri
To'raqul Zexniy ko'chasi, 10-uy.**

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "JAHON KAFOLAT STIL" MCHJ direktori A.M.Madjidov va sotib oluvchi Umarov Jurabek Xalilovichlar o'rtasida Samarqand shahri Mustaqillik mahallasi, Shohrux ko'chasi, 56-"A" uy manzilida joylashgan qurilishi tugallanmagan yerto'la binosining qurilish tagidagi maydoni 945,22 m.kv., foydali maydoni 726,09 m.kv.ni tashkil etgan qismi (1, 5, 6 va 7-xonalari) uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2022-yil 22-sentabrda o'tkazilgan to'g'ridan to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 220-sonli kelishuv bayonnomasini va ushbu bayonnoma asosida 2022-yil 22-sentabrda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TANLOVDA QATNASHING!

SamDTU farmatsiya fakulteti farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasiga assistent lavozimiga (1 o'rin) tanlov e'lon qilinadi.
Talabgorlar tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha so'rovnoma.
3. Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestati nusxalari.
4. Tasdiqlangan ilmiy ishlari ro'yxati.
5. Malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat.

**Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri
Amir Temur ko'chasi, 18-uy.**

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Xamdov Muin Melikovichga (2015-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Kubayeva Xursanga (2019-yil 2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Tosholtayevich notarial idorasida marhum Uzoqov Golib Abduvoseyevichga (2024-yil 29-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon

Tosholtayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ashurova Roziya Gulyamovnaga (2013-yil 10-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Kurtvapova Latfiyega (2023-yil 14-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich

notarial idorasida marhum Jalolova Fotima Turayevnaga (2024-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Narzikulov Baxtiyor Ulmasovichga (2024-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Karjavova Mukaddamga (2023-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Ajab zamonlar keldi-da. Kechagina kitob, gazeta-jurnal ushlagan qo'limizda bugun smartfon. Xonamizda kompyuter. "Butun olam kaftingizda namoyon", deganlari shu bo'lsa kerak. Agar bekorchiroq odam bo'lsangiz, har kuni yuzlab yangi video va rasmlarni tomosha qilishingiz, minglab xabarlarini o'qishingiz mumkin. Hech bir ish internetsiz bitmaydi. Barcha sohalar "yurib turishi" aynan internet bilan bog'liq. Shu bilan birga, taraqqiyotning bu shiddatli sur'ati ba'zan odamni dovdiratib ham qo'yarkan.

Taraqqiyot vositasimi yoki zehniyatimiz kushandasi?

"LAYK" LAR ORTIDAGI TANAZZUL

Instagram, tiktok, bigo live, likee kabi platformalarda ayrim foydalanuvchilar diqqatni tortish maqsadida o'z hayo va nomusini qurbon qilayotganiga balki ko'zingiz tushgandir. Axloqiy tanazzul va behayollik odatiy holga aylanib borishi xavotir uyg'otadi. Chunki rostdan ham axloqsizlik ochiqcha targ'ib qilinaypti. Yoshlar "layk" va "donat" uchun har narsaga tayyor kimsalarga aylanib borayotganini kuza-tish og'riqli. Bunday videolar faqat ushbu kontent egalari-ning emas, balki uni tomosha qilayotgan minglab bolalar, o'smirlar va yoshlarning ongiga ham salbiy ta'sir ko'rsat-masdan qolmaydi.

Ommaviy platformalarda hayosizlik va buzuqlik oddiy "norma" sifatida qabul qilinayptiki, go'yo bu muammo emasdek tuyuladi. Aslida esa bu katta ijtimoiy inqirozning boshlanishi bo'lishi ham mumkin. Avvalida beparvo qaral-gan videolar keyinchalik keng tarqaladi, tanishlar tomonidan ko'riladi va tasvirdagi "qahramonlar"ning oilasi sharmanda bo'ladi. Ba'zi hollarda esa ular shantaj quroliga aylanib qolishi mumkin.

"KIBERBULLING"

Ijtimoiy tarmoqlardagi "jonli efir" va postlar ostidagi izohlar esa ko'pincha haqorat, tuhmat va nafratga yo'g'ril-gan "dil rozlari" bilan to'lib-toshganiga guvoh bo'lyapmiz. Bu zo'rvonlikning yangi shakli "kiberbulling" deb ataladi. U inson ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim foy-dalanuvchilar bunday holatlar tufayli tushkunlikka tushib, ba'zilari hatto o'z joniga qasd qilishgacha boryapti. Shu bois kiberbullingga qarshi maxsus psixologik yordam xizma-ti joriy etilishini jiddiy o'ylab ko'rish kerak.

SMARTFON VA BOLALAR: KO'RINMAS XAVF

Bolalar juda kichikligidanoq gadjetlarga o'rganib qolyap-ti. Smartfon va planshetlar ularning ko'rish qobiliyatiga, miya faoliyatiga, eng achinarlisi, psixologiyasiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. "Qovlashmchoq", "lanka", "happak", "chil-lak" kabi o'yinlar deyarli unutildi. Ularning o'rnini gadjetlar egalladi.

"Birinchii sinfga kelgan bolalarning ayrimlari ustozlari va tengdoshlari bilan erkin suhbat qurolmaydi. Harf o'rganib, yozish, satr tanib o'qishdan ko'ra internetdagi "qahra-mon"larning ismlarini va "trend"dagi ashulalarni yoddan aytish osonroq ular uchun. Ko'pchiligi tez asabiylashadi, diqqatini jamlashga qiyinaladi".

Bu - qishloqdagi oddiy maktab o'qituvchisining iqrorlari edi. Bugun bolalar o'yinchoq o'rniga planshet, ertak o'rniga youtube, o'yin o'rniga onlayn muloqotni tanlayotganini siz ham ko'rib turibsiz-ku! Ular ikki-uch yoshidanoq ekransiz bezovta bo'ladigan insonlarga aylanayotgan shunchaki gap emas. Bu holat bolalarning muloqot qobiliyati, diqqatni jam-lash va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Ekraanga ko'p qaragan bolalarda asabiylilik, taassurotlarni anglashda qiyinchilik, so'z boyligida nuqsonlar kuzatilishi ilmiy tadqiqotlarda ham isbotlangan.

Sog'lom oilaviy muhit jonli muloqot bilan chambarchas bog'liq ekanini unutib qo'yyapmiz: ona qiziga telefon orqali xabar yozadi, ota hech narsaga aralashmay, yarim kecha-gacha youtube tomosha qiladi, bolalar onlayn o'yinlarda ishtirok etib, ertalab maktabda uxlab o'tiradi.

Ajrimlar, tushkunlik, befarqlik, ta'lim sifatida pasayish, ishda mas'uliyatsizlik, hayotda maqsadsizlik... yuqoridagi holatlarning achchiq mevalari bo'lsa, ajabmas.

REKLAMA TUZOG'I

Ko'plab odamlar internetdagi yaltiroq va diqqatni tor-tuvchi reklamalar tuzog'iga tushib qolyapti. "3 kunda 10 kilogramm ozing!" "Bir kunda millioner bo'ling!", "Smart-fonni 90 foiz arzon narxda xarid qiling!" kabi reklamalarga aldanganlar ozmuncha deysizmi.

Reklamachilar psixologik ta'sir bilan odamda qiziqish uyg'otishadi va tezlik bilan qaror qilishga majburlashadi: "Bugunoq xarid qilmasangiz, ertaga chegirmali aksiyamiz tugaydi". Oqibatda telefon raqamlari, karta ma'lumotlari o'g'irlanadi. Buyurtma qilingan tovar yuborilmaydi. Pulini oldindan o'tkazib qo'yg'an bo'lsangiz, 90 foiz holatda undan ayrilib qolasiz. Mabodo o'sha mahsulot sizga yetib kelgan taqdirda ham, unda oshirib-toshirib maqtalgan sifatlardan asar ham topa olmayisz.

Shaxsiy ma'lumotlarinigzni o'g'irlab, sizni har ko'yga soladiganlar toifasi esa alohida mavzu.

MASHHURLIK JAVOBGARLIK HAMDIR

Ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlikka erishgan blogerlar faqatgina reklama namoyish etish va o'zining shohona ha-



ytotini ko'z-ko'z qilish bilan cheklanmay, axloq, madaniyat, madaniyatli insonlarga xos turmush tarzini ham targ'ib qil-salar, qanchalar soz bo'lardi. Chunki ularning har bir so'zi, xatti-harakati minglab yoshlarga ta'sir qilishi mumkin.

Ayrim hollarda shaxslar virtual olamda o'zini boshqacha, ideal qilib ko'rsatishga uringani uchun haqiqiy shaxsiyatidan norozi bo'lib qoladi. Bu esa o'z-o'ziga ishonch yo'qolishiga olib keladi. Bolalar va yoshlarda tushkunlik va yolg'izlik hissi kuchayadi. Haqiqiy hayotdagi muvaffaqiyatsizlikni "virtual muvaffaqiyatlar" orqali yashirishga urina boshlaydi. Vaqtni nazoratsiz sarflashi natijasida hayotdagi rejalari o'lda-jo'lda qolib ketadi.

"DEEPAKE" TEKNOLOGIYASI

So'nggi yillarda "deepfake" (sun'iy intellekt orqali yaratilgan soxta video va audiolari) texnologiyasi shaxslar-ning obro'sini to'kish vositasiga aylanib qolayotganini ham e'tibordan soqit qilolmaymiz. Mazkur texnologiya shuning-dek, yolg'on xabarlar orqali jamoatchilik fikri manipulyatsiya qilinishi, firibgarlik jabrlanuvchilari soni oshishiga ham sa-bab bo'lmoqda. Parlamentimiz quy'i palatasida muhokama qilinayotgan yangi qonun loyihasi tasdiqdan o'tgach, balki shu kabi holatlarga chek qo'yilar.

MEDIASAVODXONLIK NIMA UCHUN KERAK?

Smartfonga ega bo'lish internetdan foydalanish uchun yetarli, ammo aqlli foydalanuvchi bo'lish uchun media-savodxonlik zarur. Bu ko'nikmani o'zimizda shakllantirish uchun faktcheking (shubhali hisobot va bayonotlarning faktik to'g'riligini tekshirish jarayoni) hamda axborot filtrat-siyasidan boxabarlik, ma'lumot manbasini aniqlash, reklama va firibgarlikni bir-biridan ajrata olish, noqonuniy kontent-dan uzoqlashish, huquq va majburiyatlarimizni bilish kerak bo'ladi.

Ta'lim maskanlarida mediasavodxonlik bo'yicha munta-zam darslar joriy etilishini qonunchilik asosida yo'lga qo'yish fursati yetdi, nazarimda.

HALI UMID BOR

To'g'ri, internetda faqat vaqtini o'g'irlyadigan kontentlar emas, balki, onlayn darslar, ilmiy kitoblar, kurslar, ta'lim platformalari ham bisyor. Gap yoshlarimiz va bolalarimizni aynan shunday foydali kontentlarga qiziqтира olishimizda!

Bugun dasturiy ta'minot yaratuvchilari, texnologik inno-vatorlar jamiyatning oldingi safida. Chunki ular yangicha fikrlaydi, masalaga ilmiy yondashadi, muvaffaqiyatga intel-lektual mehnat orqali erishadi. Farzandlarimizning imkoni-yatlarini bilim, ilm va tadqiqot sari yo'naltirishimiz shuning uchun ham zarur. Youtub orqali dasturlashni o'rganayot-ganlar, tan olingan platformalar orqali xalqaro sertifikat sohibi bo'lganlar, o'z startapini boshlaganlar ko'p. Ulardan o'rnak olib, farzandlarimizni "tomoshabin" emas, "ijodkor" sifatida internetda faollashtirishimiz lozim.

Agar bugun ularni bema'nii kontent, hayosizlikka yo'g'ril-gan videolar va firibgarlar tuzog'idan himoya qila olmasak, ertangi kunimiz qanday bo'ladi?

Internet bilim, axborot, muloqot va imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. U bizni boshqarishdan avval biz uni boshqarishni o'rgansakkina kelajakka oid xavotirlarimiz biroz chekinishi mumkin.



Nusrat BOBOYEV.

Urganjida 103 ёшли китобхонлар бор

Бунн қарангки, маърифат улашиш учун фақат давраларда ваъз айтиш, ёшларга насиҳат ўқиш шарт эмас экан. Фидойилик билан ҳаракат қилиш кўпроқ самара беради. Бунга биз пахтачилик Марзия Ёркулова фаолияти мисолида амин бўлдик. Марзия опа ёшларга китоб ўқи, деб ваъз айтаверишдан кўра, бунга шароит яратиб бериш кераклигини биларди.



Қолаверса, маҳалла тизимида ишлаган йиллари нафақат ёшлар, балки барча ёшдагилар учун китоб ҳаётнинг турли вазиятларида йўлчи юлдуздай йўл кўрсатувчи, оғир кунларида бу синовларни енгувчи йўлланма эканлигини тушунди. Аиникса, бугун оиладаги кичик муаммолардан ҳам стрессга тушиб қолдим, дея на фарзанд тарбияси, на рўзғорини уддалай олмаётганларни кўриб, ўйлаган фикри нечоғлиқ муҳимлигини англади. Ва, ҳаракатга тушди.

Ўзи туғилиб ўсган Пахтачи тумани "Урганжи" мағалла фуқа-ролар йиғини қошида кутубхона очишни ўйлади. Аввало, кутуб-хона учун жой керак. Бу ҳақда китобни қадрлайдиган туман Кен-гаши депутати Абдимажид Хуса-новга айтганда, опани кўллади ва маҳалла жойлашган бинонинг бир хонасини кутубхона учун ажратиб беришда кўмаклашди.

Шундан сўнг қаҳрамонимизни кутубхонани қандай қилиб ва қайси турдаги китоблар билан тўлдириш лозим, деган савол кийнай бошлади. Маҳаллада ишлаб юрган пайтйёқ кўпчиликка кўмак бериб, фидойилик билан ишлагани учун ҳурмати баланд. Янги кутубхонада опанинг шу фазилати асқотди. Маҳалладош-лари ўз ихтиёри билан сара китобларни келтира бошлашди. Бир неча ойдан кейин кутубхона фонди икки мингга етди. Кутубхо-на маҳалла аҳолиси учун фар-занд, набиралари билан келиб

турадиган мулоқот майдонига айланди. Кейинчалик маҳаллий ёзувчиларнинг, масалан, Фармон Тошевнинг "Мезон", "Ҳамал", Исмат Санаевнинг "Топишмоқ, зўр топишмоқ" каби кўплаб китоб тақдимотлари, маҳалла тадбирлари ҳам шу кутубхонада ўтказилиши анъанага айланди. Ҳозирги кунда кутубхона фон-ди беш мингдан ортқ бадий, илмий, тарихий, энциклопедик луғатларни ташкил этмоқда. Ушбу кишлоқ кутубхонаси 600 дан ортқ абонементларга эга бўлиб, кунига 50 га яқин китобхонлар таширф бўюришади. Вилоят ахборот-кутубхона маркази билан Пахтачидаги ушбу кутубхона до-имий ҳамкорликда ишлайди. Нар йили 2-3 марта маҳалла кутубхо-насига бориб, тадбирлар ўтказиб келамиз. Маҳалладан узоқроқда яшайдиган, имконияти чекланган,

67 ёшли Сайёра Эшқувватова, 103 ёшли Ўрал момо Эшқувватова хар ойнинг бошида кутубхона-чи Марзия китоб олиб келади деб кутишлари, уни кўрганда, болаларча хурсанд бўлганларига гувоҳман. Марзия опанинг улар каби китобхонлари бир қанча.

Қувончли хабар шундаки, Пахтачи тумани ҳокимлиги бош-чилигида "Урганжи" маҳалла фуқаролар йиғини ёнидан аҳоли ва ёшлар учун махсус кутубхона қурилиш ишлари бошланган.

- Асида хар бир туман, маҳалла, кишлоқларда оммабоп кутубхона бўлиши зарур деб ўй-лайман, - дейди "Шухрат" медали совриндори Марзия Ёркулова. - Чунки ҳамма ота-онанинг ҳам фарзандига китоб сотиб олиб бериш, турли ўқув курсларга юборишга қурби етмайди. Бугун-ги кунда биз нафақат китобларни тарғиб этишимиз, балки китоблар билан боғлиқ тадбирлар, тан-ловлар ҳам ўтказиб туришимиз лозим. Қолаверса, фақат ёшларни эмас, уйда ўтириб қолган ёши улўғ бувижонларни ҳам жалб этиш йўлларини излашимиз ло-зим. Кейинги пайтларда "Буви-жоним ва мен" "Китобхон она - китобхон бола" лойиҳаси устида ишлаяпмиз. Лекин бу жуда кам. Ҳар хил ўйинлар, топишмоқлар, саёхатлар уюштириш, инсонларни мулоқотга чақирш - бу ҳаммаси кутубхона орқали бўлса, натижа яхши.

Маҳбуба КУЛОВА.

O'zbekcha gapirsam, «qoloq» lashib qolamanmi?

Ko'cha-ko'yda ko'rib, eshitayotgan holatlarimiz ona tilimiz – o'zbek tilining ijtimoiy hayotdagi mavqei biroz zaiflashib bormayaptimikan, degan xavotirga solmoqda. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib, xavotirlarim oshyapti.

Xususiy telekanallardan birida "Ertalab-dan salom" dasturi bor. Aslida bu o'zbek tilida olib boriladigan, yurtdoshlarimizda milliy ruh-ni uyg'otuvchi tonggi ko'rsatuv bo'lishi lozim. Ammo efir davomida boshlovchilar ba'zida rus tilida muloqot qilishmoqda.

Yoki bo'lmasa, "Ovoz" teleloyihasini olay-lik. Ushbu dastur yoshi iqtidorlarga o'zini ko'rsatish imkonini beruvchi ijodiy maydon sifatida ko'pchilik tomonidan qiziqib tomosha qilinadi. Loyiha hakamlaridan biri, taniqli ayol qo'shiqchimiz o'zbek va rus tillarini aralash-tirib so'zlaganini ko'ramiz. Bu holat minglab teletomoshabinlarimizning e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Sobiq ittifoq davrida rus tilini bilish "taraqqi-yot belgisi" sifatida targ'ib qilinib, o'zbek tilining mavqei ataylab pasaytirilgan ekan. Bugun-chi? Ingliz, nemis, fransuz va rus tillarining yana ustuvor tus olishi ona tilimizga bo'lgan befarq-likni kuchaytiribmoqda. Ayrim yoshlar o'z tilidan uyalib, chet tilida gaplashishni "zamonaviylik" deb qabul qilmoqda.

Reklamalar, o'quv markazi, savdo do'koni va boshqa ko'plab taqdirkorlik subyektlari nomlari o'zbekcha emas, balki xorijiy tillarda yozilayot-gani ham shu befarqlikning yorqin namunasi



emasmi? Bu tilimizning rasmiy mavqeiga putur yetkazib, jamiyat ongida chet tilini ustun qo'yish holatini kuchaytirmaydimi?

Ijtimoiy tarmoqlarda tilimizning buzib ishla-tilayotganini inkor qilib bo'lmaydi. Tiktok, You-tube, instagram kabi internet platformalarida ko'pchilik blogerlar o'zbek tilida kontent yaratish o'rniga, ingliz yoki rus tilida chiqish qilmoqda. O'zbek tilida gapiruvchi blogerlar "qoloq" deb kamsitilayotgan ekan.

Chet tillarini bilish – zamon talabi, biroq uni o'z ona tilidan voz kechish evaziga amalga oshirmas-slik kerak. Bloger va san'atkorlarimiz o'zbek tilidagi kontentlarini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Chunki ona tilimiz orqali milliy qadriyat, madaniyat va tariximiz targ'ib etiladi.

Avazbek HAMROQULOV, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

20-MAY Obloqul USMONQULOV – 1938-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist. «El-yurt hurmati» ordeni sohibi. 22-MAY O'lmas MAHMATMURODOV – (1941-2016) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.	25-MAY Abdurashid JABBOROV – 1950-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori, professor. 30-MAY Isroil JUMANOV – 1943-yilda G'allaorol tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori.
--	---



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 588 nusxada chop etildi. Buyurtma 237. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda